

**O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA QOZI OBRAZINING TARIXI VA
IJTIMOIY-SIYOSIY AHAMIYATI.**

*GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
ADABIYOTSHUNOSLIK YO'NALISHI
4.24 GURUH MAGISTRANTI
HIMMATOVA IRODA*

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotda o'zbek mumtoz adabiyotida qozi obrazining badiiy talqini va ijtimoiy-estetik mohiyatini o'rganishga bag'ishlangan.

Tadqiqotda qozi obrazi nafaqat tarixiy-huquqiy lavozim egasi, balki badiiy tafakkur mahsuli sifatida talqin etilib, uning ikki qirrali xarakteri – adolat timsoli va ijtimoiy tanqid obyekti sifatidagi jihatlari ochib beriladi.

Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek adabiyoti tarixi, adabiyotshunoslik nazariyasi hamda badiiy tahlil yo'nalishlarida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: obraz, badiiy tahlil, adabiyotshunoslik, o'zbek adabiyoti tarixi, badiiy detal, tafakkur,

ANNOTATION

This master's dissertation is devoted to the study of the artistic interpretation and socio-aesthetic significance of the qazi (judge) image in classical Uzbek literature.

The first chapter examines the qazi image not only as a historical and legal office-holder but also as a product of artistic imagination. Particular attention is paid to its dual nature, revealing both its role as a symbol of justice and its function as an object of social criticism.

The findings of this research possess both theoretical and practical significance for the fields of Uzbek literary history, literary theory, and the methodology of literary analysis.

Keywords: image, artistic analysis, literary criticism, history of Uzbek literature, artistic detail, thought,

Ma'lumki, qozi va qozilik jarayonlarining tarixiy ildizlari Sharq musulmon jamiyatlarida shakllangan muhim huquqiy va ijtimoiy institutlardan biri bo'lib, uning ildizlari islom huquqi – fiqh tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. “Qozi” (arabcha / القاضي / qādī) atamasi “hukm chiqaruvchi”, “qaror qiluvchi” ma'nolarini anglatadi va u dastlab diniy-huquqiy nizolarni hal etuvchi shaxs sifatida vujudga kelgan. Qozi lavozimining paydo bo'lishi bevosita islom dini yoyilishi va musulmon jamiyatlarida huquqiy tartibni ta'minlash zarurati bilan bog'liq. Biroq qozi obrazining ildizlarini folklorda ham kuzatish mumkin. Jumladan, **Mushtariy** – Yupiter planetasi,

munajjimlar bu sayyorani “Sa’di akbar” yoki “Falak qozisi” deb ataydilar, joyi oltinchi falakda, deyiladi. Sharqda bu sayyora Yupiter nomi bilan emas Mushtariy nomi bilan yuritiladi. Mumtoz adabiyotda, baxt-saodat, yaxshilik, omad va davlat, adolat va hukmdorlik, adolatli hukmdor, yuksak martaba ramzi sifatida talqin etiladi. Demak, qozi bilan bog‘liq jihatlari ham ayni shunda.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, qozi faoliyatining shakllanishi Muhammad (s.a.v.) davriga borib taqaladi. Islom tarixida ilk sud-huquqiy amaliyot aynan payg‘ambar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, u kishi nizolarni hal etishda diniy hukmlar asosida qaror chiqargan. Keyingi davrlarda, xususan, xalifalik davrida bu faoliyat mustaqil institut sifatida shakllana boshlaydi. Xalifalar turli hududlarga qozilar tayinlab, ularni mahalliy sud hokimiyati vakillari sifatida faoliyat yuritishga jalb etganlar. Bu haqda islom huquqi tarixiga oid klassik tadqiqotlarda qozi institutining davlat boshqaruvi tizimining ajralmas qismi sifatida shakllangani qayd etiladi.

Fiqh ilmining rivojlanishi bilan qozilik faoliyati ham tizimli tus oladi. Qozi o‘z hukmlarini Qur’on, hadis va ijthod asosida chiqarishi lozim bo‘lgan. Bu esa uning nafaqat huquqshunos, balki chuqur diniy bilimga ega olim bo‘lishini talab qilgan. Shuning uchun ham tarixan qozilar jamiyatda yuqori mavqega ega bo‘lgan va ular ko‘pincha diniy-elita vakillari sifatida qaralgan.

Sharq musulmon davlatlarida qozi lavozimi asta-sekin davlat tuzilmasining muhim bo‘g‘iniga aylangan. Xususan, Abbosiylar, keyinchalik esa turkiy sulolalar davrida qozilar sud hokimiyatini amalga oshiruvchi asosiy shaxslar bo‘lib xizmat qilgan. Markaziy Osiyo hududida ham qozilik tizimi keng rivojlangan bo‘lib, u mahalliy boshqaruv tizimi bilan uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritgan. Qozi nafaqat sud ishlarini yuritgan, balki nikoh, meros, mulk va boshqa ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ham muhim rol o‘ynagan.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham qozi institutining tarixiy mohiyati va uning jamiyatdagi o‘rni haqida muhim fikrlar bildirilgan. Masalan, tarixiy-adabiy tadqiqotlarda qozi faqat huquqiy shaxs emas, balki ma’naviy tartibni saqllovchi, jamiyatdagi adolat mezonini belgilovchi shaxs sifatida talqin qilinadi. Bu esa qozilik faoliyatining nafaqat huquqiy, balki axloqiy mohiyatga ham ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, qozi institutining shakllanishi ijtimoiy hayotdagi murakkab jarayonlar bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Davlat tuzilmasining markazlashuvi, huquqiy tizimning rivojlanishi va diniy qarashlarning jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi natijasida qozilik tizimi yanada mustahkamlanadi. Biroq tarixiy manbalarda ayrim davrlarda qozilarning siyosiy hokimiyatga bog‘lanib qolishi, adolat mezonidan chekinishi kabi holatlar ham qayd etilgan. Bu esa qozi obrazining keyinchalik adabiyotda ikki qirrali talqinga ega bo‘lishiga zamin yaratgan.

Demak, qozi instituti islom huquqi asosida shakllangan bo‘lib, u musulmon jamiyatlarida sud hokimiyatining asosiy tayanchi sifatida rivojlangan. Uning tarixiy

shakllanishi va ijtimoiy vazifalari keyinchalik adabiyotda qozi obrazining paydo bo'lishi va turli badiiy talqinlarda aks etishiga muhim asos bo'lib xizmat qilgan.

Sharq musulmon davlatlarida qozi lavozimi sud hokimiyatining markaziy bo'g'ini sifatida shakllanib, davlat boshqaruvi tizimida muhim ijtimoiy-siyosiy funksiyani bajargan. Qozilar shariat asosida hukm chiqaruvchi vakil bo'lib, ularning faoliyati nafaqat huquqiy tartibni ta'minlash, balki jamiyatda axloqiy me'yorlarni mustahkamlashga ham qaratilgan edi. Shu bois qozi lavozimi davlat tuzilmasida ijro va siyosiy hokimiyatdan ma'lum darajada mustaqil bo'lgan sud hokimiyatining asosiy ifodachisi sifatida qaralgan.

Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, xalifalik va keyingi musulmon sulolalari davrida qozilar bevosita hukmdor tomonidan tayinlangan bo'lsa-da, ularning hukm chiqarish jarayonida shariat qonunlariga tayanishi talab etilgan. Bu esa qoziga ikki tomonlama maqom bergan: bir tomondan, u davlat vakili, ikkinchi tomondan esa diniy-huquqiy tartibni ifodalovchi shaxs bo'lgan. Shu sababli qozining qarorlari nafaqat huquqiy, balki ma'naviy legitimlikka ham ega deb hisoblangan.

Sharq davlatlarida qozi lavozimining ijtimoiy-siyosiy o'rni uning vakolat doirasi kengligi bilan ham belgilanadi. Qozi sud ishlarini yuritish bilan birga, nikoh va ajrim masalalari, meros taqsimoti, mulkiy nizolar, vasiyatlar, hatto ayrim hollarda savdo-sotiq munosabatlarini ham tartibga solgan. Bu esa qozini jamiyat hayotining deyarli barcha qatlamlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi shaxsga aylantirgan. Shuning uchun ham qozi qarori ko'pincha yakuniy va majburiy hisoblangan.

O'zbek adabiyotshunosligida ijtimoiy obrazlar tizimini tahlil qilgan tadqiqotlarda qozi obrazi davlat va jamiyat o'rtasidagi muhim bog'lovchi bo'g'in sifatida talqin etiladi. Jumladan, ijtimoiy obrazlar tizimida podsho – siyosiy hokimiyat timsoli, vazir – boshqaruv mexanizmi, qozi esa adolat va hukm chiqarish vakolatining ifodachisi sifatida qaraladi. Bu tizimda qozi obrazining o'rni ayniqsa muhim, chunki u bevosita adolat mezoni bilan bog'liq. Biroq tarixiy jarayonda qozining ijtimoiy-siyosiy mavqei har doim ham barqaror bo'lmagan. Ayrim davrlarda qozilar siyosiy hokimiyat ta'siriga tushib qolgan, bu esa sud mustaqilligining susayishiga olib kelgan. Natijada qozining hukm chiqarish faoliyatida subyektivlik, adolatsizlik yoki manfaatdorlik kabi holatlar yuzaga kelgan. Bu esa qozi obrazining jamiyatdagi nufuzi bilan birga unga nisbatan tanqidiy munosabatning ham shakllanishiga sabab bo'lgan.

Shu jihatdan qaraganda, qozi lavozimi Sharq davlatlarida ikki tomonlama ijtimoiy-siyosiy funksiyani bajargan: bir tomondan, u adolatni ta'minlovchi muhim institut bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, u hokimiyat tizimi bilan bog'liq bo'lganligi sababli turli ijtimoiy ziddiyatlarning markazida ham turgan. Aynan shu ikkiyoqlama holat keyinchalik adabiyotda qozi obrazining turli: ijobiy va tanqidiy talqinlarda aks etishiga zamin yaratgan.

Demak, Sharq davlatlarida qozi lavozimi nafaqat sud hokimiyatining asosiy shakli, balki jamiyatdagi adolat tushunchasining amaliy ifodasi sifatida muhim ijtimoiy-siyosiy rol o'ynagan. Uning keng vakolatlari va jamiyat hayotiga chuqur ta'siri qozi obrazining adabiyotda muhim ijtimoiy obraz sifatida shakllanishiga bevosita asos bo'lib xizmat qilgan.

Qozi lavozimi nafaqat huquqiy vakolat, balki yuksak axloqiy mas'uliyatni ham o'z ichiga olgan. Shu sababli islom huquqi an'anasida qoziga qo'yilgan talablar ikki asosiy yo'nalishda: huquqiy malaka va axloqiy poklik mezonlari orqali belgilanadi. Bu ikki omil uyg'unlashmaguncha qozining hukmi to'liq va haqqoniy deb hisoblanmagan.

Huquqiy jihatdan qozi Qur'on, hadis va fiqh qoidalarini chuqur bilishi, ularni turli hayotiy vaziyatlarga mos holda qo'llay olishi zarur bo'lgan. Fiqh adabiyotlarida qozining "ahl al-ijtihad" darajasiga yaqin bo'lishi, ya'ni mustaqil hukm chiqarish salohiyatiga ega bo'lishi muhim shart sifatida qayd etiladi. Bundan tashqari, qozi da'vo va dalillarni tekshirish, guvohlarni baholash, nizolarni xolis ko'rib chiqish kabi sud amaliyotiga oid ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak edi. Bu talablar qozining hukmi faqat diniy emas, balki mantiqiy va dalillarga asoslangan bo'lishini ta'minlagan.

Biroq qoziga qo'yilgan eng muhim talablar uning axloqiy qiyofasi bilan bog'liq bo'lgan. Adolat (عدل) qozining bosh fazilati sifatida qaralgan bo'lib, u hukm chiqarishda barcha tomonlarga teng munosabatda bo'lishni anglatadi. Halollik esa moddiy manfaatlardan yiroq turish, pora va manfaatdorlikka berilmaslik mezonlari sifatida tushunilgan. Vijdon (insof) esa qozining ichki nazorati, ya'ni har qanday hukmda nafaqat qonun, balki insoniylik va adolat mezonlariga amal qilishini ta'minlovchi ichki kuch sifatida talqin etilgan.

Islom huquqiy an'alarida qozining shaxsiy fazilatlari alohida ta'kidlanadi: u halol, to'g'ri so'zli, sabrli, vazmin, nafsini tiygan, jahldan yiroq, tarafkashlikdan holi bo'lishi lozim. Chunki sud jarayonida chiqarilgan har bir hukm jamiyatdagi adolat muvozanatini belgilaydi. Shu bois qozi nafaqat huquqshunos, balki ma'naviy yetuk shaxs bo'lishi talab etilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida ham badiiy obrazlar tizimini tahlil qilgan tadqiqotlarda ijtimoiy obrazlarning axloqiy mezon bilan chambarchas bog'liqligi qayd etiladi. Izzat Sulton badiiy obrazni estetik baholash jarayoni bilan bog'lar ekan, unda axloqiy ideal muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi: *"Yozuvchi badiiy adabiyot asarida inson obrazini va hayot manzarasini eng muhim, xarakterli xususiyatlari bilan tasvirlab berish uchun, to'qimaga murojaat etadi. Badiiy asarning mazmuni hayotdagi hodisalarning jo'n nusxasi emas, balki hayotiy hodisalarga suyanib, ularni sosial va estetik ideal nuqtai nazaridan baholab turib, san'atkorning fantaziyasi vositasi bilan yangidan yaratilgan, to'qib chiqarilgan hayot manzarasidir. Har bir badiiy asar*

yo'zuvchisi xayolida hayotiy taassurotlardan paydo bo'lgan yangi bir dunyodir"¹. Shu nuqtai nazardan, qozi obrazi ham adabiyotda ko'pincha aynan adolat, halollik va vijdon mezonlari orqali baholanadi. Shu bilan birga, tarixiy manbalarda qozilarning yuqoridagi talablarga har doim ham amal qilavermaganligi qayd etiladi. Ayniqsa, poraxo'rlik, manfaatdorlik yoki siyosiy bosim ta'sirida chiqarilgan hukmlar qozining axloqiy qiyofasiga putur yetkazgan. Bu esa qozi obrazining nafaqat ideal, balki tanqidiy talqinlarda ham namoyon bo'lishiga sabab bo'lgan. Demak, qozi shaxsiga qo'yilgan axloqiy va huquqiy talablar uning jamiyatdagi o'rnini belgilovchi asosiy mezon bo'lib, adolat, halollik va vijdon bu obrazning markaziy fazilatlarini sifatida qaraladi. Aynan shu talablar keyinchalik adabiyotda qozi obrazining ijobiy yoki salbiy talqin qilinishida asosiy mezon vazifasini bajaradi.

Mumtoz Sharq tafakkurida qozi obrazi faqat ijtimoiy-huquqiy lavozimni ifodalovchi shaxs bilan cheklanmay, balki chuqur diniy-falsafiy mazmun kasb etadi. Bu obraz islomiy dunyoqarashda markaziy o'rin tutgan "adolat" tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u ko'pincha ilohiy tartib, kosmik muvozanat va haqiqat mezonini sifatida talqin qilinadi. Shu sababli qozi obrazining ildizlarini faqat tarixiy yoki huquqiy asosda emas, balki diniy-falsafiy tizim doirasida ham o'rganish zarur.

Islom tafakkurida adolat Allohning asosiy sifatlaridan biri sifatida qaraladi. Qur'oni karimda adolatga da'vat qiluvchi ko'plab oyatlar mavjud bo'lib, ular insondan ham adolatli bo'lishni talab etadi. Jumladan, "Niso" surasining 56-oyatida shunday deyiladi: *"Albatta, Alloh sizlarni omonatlarini o'z egalariga topshirishga va odamlar orasida hukm qilganingizda **adolat** bilan hukm qilishga buyuradi. Albatta, Alloh sizlarga eng yaxshi pand-nasihatlar qilur. Albatta, Alloh eshitguvchi, ko'rguvchi bo'lgan zotdir."*². Demak, qozi ham – yer yuzida ilohiy adolatni amalga oshiruvchi vositachi sifatida tushuniladi. U chiqarayotgan hukm faqat dunyoviy qaror emas, balki ma'lum ma'noda ilohiy haqiqatni ifodalovchi amal sifatida talqin etiladi. Bu qarash qozi obrazining ma'naviy va falsafiy yukini yanada oshiradi.

Mumtoz adabiyotda qozi obrazining diniy-falsafiy asoslari ko'pincha kosmik tasavvurlar bilan boyitiladi. Sharq munajjimlik an'analari sayyoralar va falak qatlamlari muayyan ma'naviy ma'nolar bilan bog'langan bo'lib, ular insoniy fazilatlarining ramziy ifodasi sifatida qaralgan. Shu kontekstda Mushtariy (Yupiter) sayyorasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mumtoz manbalarda Mushtariy "Sa'di akbar" (eng ulug' baxt sayyorasi) deb atalib, u ezgulik, adolat va farovonlik timsoli sifatida talqin qilingan. Shuningdek, tasavvufiy tafakkurda ham adolat va haqiqat tushunchalari markaziy o'rin tutadi. Bu yo'nalishda qozi obrazi ba'zan tashqi shariat hukmlarini ifodalovchi shaxs sifatida, ba'zan esa ichki haqiqatni anglash mezonini sifatida talqin

¹ Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 1986. – B. 110.

² Qur'oni Karim. Alouddin Mansur tarjimasi. "Niso" surasi. 56-oyat. www.ziyouz.com kutubxonasi. 69-bet.

qilinadi. Ya'ni haqiqiy adolat nafaqat tashqi hukmda, balki inson qalbida ham mavjud bo'lishi kerak degan g'oya ilgari suriladi.

Demak, qozi obrazining diniy-falsafiy asoslari uni oddiy ijtimoiy obraz darajasidan yuqoriga ko'tarib, ilohiy va kosmik adolat timsoliga aylantiradi. "Falak qozisi" va "Mushtariy – Sa'di akbar" kabi tushunchalar orqali bu obrazning ramziy qatlami yanada chuqurlashadi. Aynan shu ko'p qatlamli mazmun keyinchalik adabiyotda qozi obrazining turli talqinlarda – ideal yoki tanqidiy shakllarda namoyon bo'lishiga mustahkam asos yaratadi. Mumtoz adabiyotda badiiy obrazlar ko'pincha alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'langan ijtimoiy obrazlar tizimi doirasida tasvirlanadi. Bu tizim jamiyat tuzilishining badiiy modeli sifatida shakllanib, unda turli ijtimoiy qatlamlar va hokimiyat bo'g'inlari ramziy tarzda ifodalanadi. Shu nuqtai nazardan, podsho – vazir – qozi uchligi mumtoz adabiyotda eng muhim ijtimoiy obrazlar tizimlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tizimda podsho oliy hokimiyat va davlat boshqaruvining timsoli sifatida namoyon bo'ladi. U adolatni ta'minlash, jamiyatni tartibga solish va umumiy siyosiy yo'nalishni belgilovchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Vazir esa podshoning eng yaqin maslahatchisi, davlat boshqaruvining amaliy mexanizmini yurituvchi aql va tadbir timsoli sifatida gavdalanadi. U siyosiy muvozanatni saqlash, qarorlarni to'g'ri amalga oshirish va davlat ishlarini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Mumtoz adabiyotda ushbu tizim ko'pincha axloqiy-estetik ideal asosida quriladi. Ideal holatda podsho adolatli, vazir dono va sodiq, qozi esa halol va vijdonli bo'lishi lozim. Biroq badiiy asarlarda bu ideal tizim ko'pincha buzilgan holda ham tasvirlanadi. Ayniqsa, qozi obrazining adolatdan chekinishi butun tizimning izdan chiqishiga olib keluvchi omil sifatida ko'rsatiladi. Bu esa qozi obrazining tizim ichidagi o'rni qanchalik muhim ekanini yanada yaqqol ko'rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, qozi obrazi ijtimoiy obrazlar tizimida nazorat va muvozanat funksiyasini bajaradi. U orqali yozuvchi jamiyatdagi adolat darajasini baholaydi, hokimiyatning to'g'ri yoki noto'g'ri ishlashini ko'rsatadi. Agar qozi adolatli bo'lsa, tizim barqaror ishlaydi; agar u buzilsa, jamiyatda ziddiyat va muammolar kuchayadi.

Demak, mumtoz adabiyotda qozi obrazi podsho – vazir – qozi tizimining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lib, u orqali adolat, hukm va ijtimoiy muvozanat masalalari badiiy ifodalanadi. Bu tizim qozi obrazining keyingi talqinlarini tushinishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mumtoz adabiyotda qozi obrazining ijobiy talqini, avvalo, uning ideal sudya sifatida gavdalanishida namoyon bo'ladi. Bu modelda qozi jamiyatdagi adolatning tirik timsoli, haqiqatni tiklovchi va insonlar o'rtasidagi nizolarni haqqoniy hal etuvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Bunday obrazda individual xususiyatlardan ko'ra, umumlashgan, ya'ni tipik belgilar ustuvorlik qiladi.

Adabiyotshunoslikda **tipik** obraz muayyan ijtimoiy vazifani eng mukammal darajada ifodalovchi badiiy birlik sifatida qaraladi. Bu haqida D.Quronov shunday fikr bildiradi: *“Umumlashtirish darajasiga ko‘ra badiiy obrazlar ikki jihatdan tasnif etiladi. Birinchisi ko‘proq inson obraziga tatbiqan bo‘lib, bunda individual obraz, xarakter va tipik obraz (yoki tip) ajratiladi. Shunita’kidlash kerakki, bularning orasidagi farq doim ham yaqqol ko‘zga tashlanavermaydi, ya’ni bu tasnifda muayyan darajada shartlilik saqlanib qoladi. Individual obraz deganda o‘zigagina xos bo‘lgan fe’l-atvori, gap-so‘zlari, betakror xarakter xususiyatlari bilan namoyon bo‘luvchi obrazlar tushuniladi. ... Tipik obraz deyilganda esa muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoit, davr va muhitga xos muhim xarakterli xususiyatlarni o‘zida namoyon etgan obraz nazarda tutiladi”*³. Shu nuqtai nazardan, ijobiy qozi obrazi – bu sud hokimiyatining ideal modeli, ya’ni qanday qozi bo‘lishi kerakligi haqidagi estetik tasavvurning ifodasidir. Izzat Sulton badiiy obrazning estetik mohiyatini tahlil qilar ekan, unda ideal va haqiqat o‘rtasidagi uyg‘unlik muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Aynan shu uyg‘unlik ijobiy qozi obrazida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ideal qozi obrazining eng muhim belgisi – adolatlilikdir. Bu fazilat uning barcha qarorlarida asosiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Adolatli qozi hech bir tomonning ijtimoiy mavqeiga, boyligiga yoki shaxsiy aloqalariga qarab hukm chiqarmaydi, balki haqiqat va qonun asosida qaror qabul qiladi. Bu jihat qozi obrazining asosiy tipik xususiyati sifatida shakllangan.

Ikkinchi muhim belgi – halollik va poklikdir. Ideal qozi moddiy manfaatlardan yiroq bo‘lib, pora yoki shaxsiy foyda evaziga hukm chiqarmaydi. Bu fazilat uning ijtimoiy ishonchliligini ta’minlaydi. Ozod Sharafiddinov badiiy tafakkurda obrazning qadriyatlar tizimi bilan bog‘liqligini ta’kidlab, ijobiy obrazlar orqali jamiyat uchun zarur axloqiy mezonlar ifodalanishini qayd etadi: *“Nazarimda, o‘tmishdagi buyuklarimiz juda katga jasoratlarni ko‘rsatgani uchun, ma’naviyat bobida ulug‘ kashfiyotlar qilgani uchun buyuk bo‘lishgan”*⁴. Halollik ham aynan shunday asosiy mezonlardan biridir.

Uchinchi muhim xususiyat – vijdonlilik va mas’uliyat hissidir. Ideal qozi nafaqat tashqi qonunlarga, balki ichki axloqiy nazoratga – vijdoniga ham amal qiladi. Bu esa uning hukmlarini yanada chuqurroq va haqqoniyroq qiladi. Q.Yo‘ldoshev badiiy obrazni muallifning axloqiy pozitsiyasi bilan bog‘lar ekan, obraz orqali insoniy mas’uliyat va vijdon tushunchalari ifodalanishini ta’kidlaydi: *“Badiiy tahlil yo‘llari o‘zlashtirilmaguncha talabalar ham, o‘quvchilar ham haqiqiy adabiyot namunasi qiziq syujetli yengil-yelpi bitiklardan farqlay olmaydilar. Chunki ular asl badiiy matnning qimmatini nimadan iboratligini bilmaydilar. Bu holat ularni badiiy shabko‘rlik – daltonizmga, didsizlikka olib boradi. Estetik shabko‘rlik, didsizlik esa ma’naviy*

³ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. – B. 110.

⁴ Sharafiddinov Ozod. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004. – B. 185.

kemtiklik va axloqiy loqaydlik kabi illatlarga sabab bo'ladi"⁵. Bu qozi obraziga ham taalluqlidir.

Bundan tashqari, ijobiy qozi obraziga xos yana bir jihat – donolik va tafakkur kengligidir. Qozi murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olishi, turli dalillarni tahlil qila bilishi va haqqoniy xulosa chiqarishi bilan ajralib turadi. Bu esa uni oddiy amaldordan ko'ra yuqoriroq darajadagi ma'naviy va intellektual shaxs sifatida ko'rsatadi.

Mumtoz adabiyotda qozi obrazi ko'pincha axloqiy idealni ifodalovchi markaziy figuraga aylanadi. U orqali yozuvchi jamiyat qanday bo'lishi kerakligini, adolat qanday mezonlarga asoslanishi lozimligini ko'rsatadi. Bunday obrazlar didaktik vazifani bajarib, o'quvchini to'g'ri yo'lga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ijobiy qozi obrazi boshqa ijtimoiy obrazlar bilan ham uyg'unlikda tasvirlanadi. Agar podsho adolatli, vazir dono bo'lsa, qozi ham halol va vijdonli bo'lishi zarur – aks holda butun ijtimoiy tizim izdan chiqadi. Bu esa qozi obrazining ijtimoiy tizimdagi muhim o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Demak, qozi obrazining ijobiy modeli adolat, halollik, vijdonlilik va donolik kabi fazilatlar asosida shakllanib, u mumtoz adabiyotda ideal sudya timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Bu model keyinchalik qozi obrazining boshqa – tanqidiy talqinlarini tushunishda asosiy mezon vazifasini bajaradi.

Mumtoz adabiyotda qozi obrazining muhim yo'nalishlaridan biri uning tanqidiy talqini bo'lib, unda qozi ijtimoiy hayotdagi salbiy illatlarning mujassam timsoli sifatida gavdalanadi. Bu modelda qozi ideal sudya emas, aksincha, adolat mezonidan chekingan, shaxsiy manfaatni ustun qo'yuvchi va jamiyatdagi muammolarning sababchisiga aylangan obraz sifatida tasvirlanadi. Shu jihatdan salbiy qozi obrazi badiiy asarda nafaqat xarakter yaratish vositasi, balki ijtimoiy tanqidning muhim shakli hisoblanadi.

Salbiy qozi obrazining eng asosiy belgisi – poraxo'rlikdir. Bunday obrazda qozi hukm chiqarishda qonun yoki haqiqatga emas, balki moddiy manfaatga tayanadi. U boy va qudratli tomon foydasiga qaror chiqarib, kambag'al va zaif tomon huquqini poymol qiladi. Bu holat orqali yozuvchi jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlikni ochib beradi. Adabiyotshunoslikda bunday obrazlar orqali real hayotdagi muammolar umumlashtirilgan holda ifodalanishi qayd etiladi.

Ikkinchi muhim xususiyat – riyokorlik va ikkiyuzlamachilikdir. Salbiy qozi tashqi ko'rinishda dindor, halol va adolatli bo'lib ko'rinadi, ammo aslida u bu mezonlarga amal qilmaydi. Bu ikki qatlamlilik obrazning ichki ziddiyatini kuchaytiradi va uning tanqidiy mohiyatini ochib beradi. Riyokor qozi obrazi aynan shu vazifani bajaradi.

⁵ Q.Yo'ldosh, M.Yo'ldosheva. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak. 2018. – B. 15.

Uchinchi asosiy belgi – zolimlik va adolatsizlikdir. Bunday qozi o'z vakolatidan suiiste'mol qilib, hukm chiqarishda zo'ravonlik, bosim yoki manfaatdorlikka yo'l qo'yadi. Natijada sud tizimi adolatni tiklash vositasi emas, balki zulmni mustahkamlovchi mexanizmga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, zolim qozi obrazi jamiyatdagi adolat inqirozining badiiy ifodasi sifatida qaraladi.

Mumtoz adabiyotda salbiy qozi obrazi ko'pincha kinoya, tazod va mubolag'a kabi tasvir vositalari orqali beriladi. Bu vositalar obrazning tanqidiy kuchini oshirib, uning ichki mohiyatini yanada keskinroq ochadi. Natijada bunday obrazlar o'quvchida kuchli estetik va hissiy ta'sir uyg'otadi. Shu bilan birga, salbiy qozi obrazi ko'pincha ijobiy model bilan qarama-qarshi qo'yiladi. Bu qarama-qarshilik orqali adolat va adolatsizlik o'rtasidagi tafovut yanada yaqqolroq ko'rinadi. Ya'ni ideal qozi qanday bo'lishi kerakligi salbiy qozi orqali yanada ravshanlashadi. Bu esa badiiy asarning g'oyaviy kuchini oshiradi.

Demak, qozi obrazining salbiy talqini mumtoz adabiyotda ijtimoiy tanqidning muhim vositasi bo'lib, u orqali poraxo'rlik, riyokorlik va zolimlik kabi illatlar fosh etiladi. Bu model qozi obrazining ikki qirrali tabiatini ochib berib, uning badiiy evolyutsiyasida muhim bosqichni tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahmad Taroziy. Funun ul-balog'a. – T.: Xazina, 1996. – 212 b.
2. Arastu. Poetika. – T.: Adabiyot va san'at, 1980. – 152 b.
3. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. Adabiy-ilmiy maqolalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 364 b.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2001. – 640 b.
5. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 344 b.
6. Fitrat. Tanlangan asarlar. 5 jildlik. 2-jild. – T.: Ma'naviyat, 2000. – 280 b.
7. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999. – 240 b.
8. Ishoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. – T.: O'zbekiston, 2006. – 451 b.
9. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 1980. 486 b.
10. Jumaxo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 430 b.
11. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – T.: Muharrir, 2011.
12. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. – T.: Yangi nashr, 2010. – 364 b.
13. Mirzaaxmedova M. Xoja. – T.: Fan, 1975. – 178 b